

AGATA KRISTI.
BULBUL OSHYONI (HIKOYA)

— Xayr, azizim!

— Xayr, jonginam!

Aliks Martin kichkina, qo‘pol darichaga suyanganicha qishloqqa eltuvchi so‘qmoq bo‘ylab ketayotgan erining ortidan qarab qoldi. Mana, eri burilishda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, Aliks esa, o‘sha alfozda turganicha, anor yonoqlarini o‘pib turgan parishon qo‘ng‘ir sochlarini xayolchan tuzata boshladi. Uning qaroqlarida teran taxayyul va allanechuk orzumandlik aks etardi. Aliks Martinni o‘ta go‘zal va latofatli atamoq to‘g‘ri bo‘lmas, uning husn-tarovati tilni ojiz qoldiradigan darajada emasdi. Biroq yoshlikning ilk bosqichini allaqachon bosib o‘tgan chehrasida baxt va xotirjamlik balqib turardiki, uning sobiq hamkasabalari avvalgi ishchan, tinib-tinchimas, uddaburon, biroz jizzaki, xayolparastlikdan uzoq shaddod Aliks Kingni taniyolmagan bo‘lishardi. U o‘rta maktabni arang bitirdi. O‘n sakkiz yoshidan to o‘ttiz uchga kirgunicha tirikchilik vajidan stenografiya sohasida ishladi. O‘tgan ana shu o‘n besh yilning so‘nggi yetti yili davomida onasi kasallanib qoldi. Bemor boqishning esa o‘zi bo‘lmaydi. Yashash uchun shafqatsiz kurash yoshgina qizning yuzlarida sezilar-sezilmas izlar qoldirib ketdi. Rost, bu orada uning hayotiga muhabbat ham bir mo‘ralab o‘tdi. U bir paytlar o‘zi bilan birga ishlaydigan Dik Vindifordni sevib qolgan edi. U nozik jins vakili sifatida yigitga yoqishini ich-ichdan his etar, buni sirtiga chiqargisi kelmasdi. O‘zi ham unga befarq emasdi. Sirdan ular faqatgina do‘st edilar, xolos. Dik ishlab topgan pulini tejab-tergab uning bir qismini ukasining o‘qishi uchun sarflardi. U paytda uylanish haqida o‘ylab ham ko‘rmagandi. Ittifoqo, qiz kundalik qora mehnatdan xalos topadigan bo‘ldi. Uzoq bir qarindoshi unga bir necha ming funtga teng boyligi bilan birga har yili tushib turadigan ikki yuz funtlik daromadni vasiyat qilib yorug‘ dunyoni tark etdi. Aliks uchun bu narsa erkinlik, farovon va mustaqil hayot va‘da qilardi. Endi u Dik bilan bemalol turmush qursa bo‘lardi. Ammo Dik kutilganidek harakat qilmadi. U shu paytgacha o‘z muhabbatini Aliksga izhor qilmagandi. Chamasi bu xaqda endi ham og‘iz ochishga chog‘i kelmayotgan edi. U endi qizdan o‘zini olib qochadigan allanechuk odamoviga aylangan edi. Aliks buning boisini darrov tushundi. Yigitning g‘urur va istig‘nosi qizning qo‘lini so‘ragani imkon bermayotgan edi. Uning bu saj‘iyasi Aliksga yoqardi. U dastlabki qadamni o‘zi tashlashga ham tayyor edi, ammo kutilmaganda ro‘y bergan bir voqea xamma narsani ostin ustun qilib yubordi. U dugonasining uyida Jerald Martin degan yigit bilan tanishib qoldi. Yigit uni juda qattiq sevib qoldi. Oradan bir hafta o‘tmay ularni unashtirish

marosimi bo‘ldi. O‘zini sevilishga nomunosib qizlar toifasidan deb biluvchi Aliks kutilmagan bu yangilikdan o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. U bexos Dik Vindifordning ham his-tuyg‘ularini uyg‘otib yubordi. U qizning yoniga kelib, g‘azabdan duduqlana-duduqlana qichqira ketdi.

— U senga yetti yot begona-ku! Sen u haqida hech narsa bilmaysan.

— Men shuni yaxshi bilamanki, uni sevaman.

— Qanaqasiga bilishing mumkin axir. U bilan tanishganingga endi bir hafta bo‘ldi-ku?

— Hammayam muhabbatini izhor etish uchun o‘n bir yilni o‘tkazib yuboravermaydi, — dedi Aliks asabiylashib.

Yigit oqarib ketdi.

— Men seni birinchi uchratgan kunimdan beri yaxshi ko‘raman. Sen meni sevsang kerak, deb o‘ylardim.

— Men ham shunaqa deb o‘ylagan edim, iqror bo‘ldi Aliks. Endi o‘ylab qaragam, muhabbat haqida ko‘p narsani bilmas ekanman. Dik avval yalindi, yolvordi, hatto do‘q-po‘pisa ham qilib ko‘rdi. Uning o‘rnini egallab olgan kimsa bilan ham talashib-tortishdi. O‘shanda Aliks yaxshi bilaman deb o‘ylagan odamning tashqi sipoligi ostida yashirinib kelayotgan tuyg‘ulari tug‘yoni uni hayratda qoldirdi.

Aliks quyoshli tongda darchaga suyanganicha o‘sha suhbatni yodga oldi. Uning turmush qurganiga bir oy to‘lgan, o‘zini behad baxtiyor his etardi boyaqish. Faqat, hozirgina jonidan ortiq ko‘rgani, eri uydin chiqib ketgach, u o‘zini tushuniksiz bezovtalik komida his etdi. Bu halovatsizlik boisi esa, Dik Vindiford edi.

U erga tekkanidan beri uch marta aynan bir xil tush ko‘rdi: Eri o‘lib yotganmish, uning tepasida Dik tirjayib turarmish. Juvon erining qotili u ekanini aniq bilmish. Eng dahshatlisi u erining o‘limidan xursand emish. Minnatdorchilik yuzasidan erining qotilini tabriklarmish. Tush hamisha bir xil, Dik ayolni o‘z og‘ushiga olishi bilan tugardi.

Telefonning qo‘qqisidan jiringlashi bilan ayolning xayollari bo‘lindi. U uyga kirib go‘shakni ko‘tardi.

— Nima dedingiz? Kim bu gapirayotgan?

— Aliks, ovozingga nima qildi? Men seni tanimabman. Bu men Dikman.

— Q... qaerdan telefon qilyapsan?

— "Sayyoh tug'rosi" mehmonxonasidan. Oti shunaka edi shekilli. Sen shunaqa mehmonxona xaqida eshitganmisan? Men faqat dam olish kunlari bu yerga baliq oviga kelgandim. Bugun sizlarnikiga borsam maylimi?

— Yo'q, dedi Aliks qat'iyat bilan. — Kelmasang yaxshi bo'lardi.

Jimlik cho'kdi. Dik yana tilga kirganida ovozi boshqacharoq chiqdi:

— Iltimos, kechir meni, — dedi sovuq ohangda, — Endi seni umuman bezovta qilmayman.

Aliks shoshqich uning gapini bo'ldi. Uning bu muomalasi yigitga erish tuyuldi chog'i. Chindan ham g'alati gapirib qo'ydi-da. Shu bois ayolning asablari chaqnab ketgandek bo'ldi.

— Men faqat.. aytmqochiydimki... biz bugun band bo'lamiz...— U o'z gapini yanada tabiiyroq ko'rsatishga tirishdi. — Yaxshisi ertaga kechki payt kela qol. Biroq, Dik uning ovozidagi nosamimiylikni darhol ilg'ab oldi.

— Rahmat, — dedi boyagi ohangda, — Ertaga biror yoqqa ketib qolishim mumkin. Bu yaqin tanishimning ertaga kelish-kelmasligiga bog'liq. Xayr, Aliks,— u shosha-pisha boshqacha tovushda qo'shib qo'ydi, — baxtli bo'l azizim.

Aliks go'shakni joyiga qo'yarkan, yengil tin oldi. "U bu yerga kelmasligi kerak. Bu yerga kelmasligi kerak, — deya ichida bir necha marta takrorladi. — Naqadar axmoqman. Nahot uning kelishini xohlayotgan bo'lsam? Yo'q, u kelmasa men xursand bo'laman.

U stol ustida turgan oddiygina shlyapasini boshiga ilib, yana boqqa chiqdi-da uyga kiraverishda ilib qo'yilgan lavhaga ko'z tashlab qo'ydi: "Bulbul oshiyoni". — Juda g'alati nom ekanmi, — deya so'ragan edi u to'ydan ilgari Jeralddan. — Asalim, — deya erkalagan edi u o'shanda eri, — Aminmanki, sen shu paytgacha bulbul xonishini eshitmagansan, men esa bundan xursandman. Bulbullar faqat oshiq qalblar uchun kuylaydilar. Endi kechqurunlari biz bulbul fig'onini sen bilan birga eshitamiz. U eshik oldida to'xtab bulbul lahnini eshitgan va baxtdan sarxush bo'lgan ilk oqshomni yodga oldi.

"Bulbul oshiyoni"ni topgan ham Jeraldning o'zi edi. Bir gal u hovliqib kelgan va o'zlari uchun zarur boshpanani topganini, bunaqa imkoniyat hayotda bir marta berilishi mumkinligini aytgan edi. Uyni ko'rib Aliks ham bunga amin bo'ldi. Rost, qoq yalanglikdagi uy bilan bu oradagi eng yaqin qishloq orasidagi masofa kamida ikki mil chiqar, biroq eskicha uslubda tiklangan uyda vannaxona, issiq va

sovuq suv, elektr, telefon kabi zarur qulayliklar bor ediki, Aliks bularga mahliyo bo‘lib boshqa turar-joy haqida o‘ylamay ham qoldi. Biroq orada bitta muammo chiqib qoldi — uying egasi uni ijaraga berish fikridan qaytib qoldi, faqat naqd pulga sotishini aytdi.

Jerald Martinning topish-tutishi yaxshigina bo‘lsada, o‘zining asosiy sarmoyasiga qo‘l tekkizishni istamadi. U naqd qo‘lga olishi mumkin bo‘lgan summa ming funtni tashkil etardi. Uyni esa uch mingga baholashdi. Aliks uyni juda yoqtirib qolgani uchun Jeraldga ko‘maklashmoqchi bo‘ldi. U chek orqali o‘ziga tegishli pulni nisbatan osonroq olishi mumkin edi. U o‘z mablag‘ining teng yarmini uyni sotib olishga ajratdi.

Xullas, uy ularniki bo‘ldi, Aliks esa bundan sira ham afsusda emasdi. To‘g‘ri, erining qaysarligi, o‘zboshimchaligi xizmatkorlarga yoqmadi, ularning hammasi bu uydan ketib qolishdi. Uy ishlarini ancha sog‘inib kolgan Aliks esa, jon-jon deb bu yumushlarni o‘z zimmasiga oldi. Bog‘dagi anvoi gullarni parvarishlash uchun yaqin oradagi qishloqda yashovchi keksa bir bog‘bon haftada ikki marta kelib turardi.

Uy tarafga qarab kelayotgan Aliks gullarga qarab yurgan bog‘bon cholni ko‘rib ajablandi. U asosan, dushanba va juma kunlari kelardi, bugun esa — chorshanba. — Jorj, bu yerda nima qilyapsiz? — so‘radi unga yaqinlashib.

Chol qaddini roslarkan, pixillab kuldi va eski kepkasini to‘g‘irlab qo‘ydi. — Shuni so‘rasangiz kerak, deb o‘tiruvdim o‘zim ham, bekam. Juma kuni qudamiz ziyofat bergich edi. O‘zimcha, janob Martin va uning muhtarama rafiqasi bir gal juma o‘rniga chorshanba kuni borib ishlab bersam, qarshi bo‘lmaslar dedim.

— Albatta, — dedi Aliks. — O‘ziyai miriqib ko‘ngil yozsangiz kerak?

— Bu aniq, — dedi chol soddalik bilan. — Pulini to‘lamlasligingni bila turib, to‘yguncha yeb-ichish kimga yoqmaydi? Aytganicha, bekam, siz ketib qolgunningizcha boshqa ko‘rishmasligimiz mumkin, menga biror zarur topshirig‘ingiz bo‘lsa aytib qo‘ying, demoqchi edim. Hali qachon ketishinigiz ma‘lum emasmi?

— Men hech qaerga ketmoqchi emasman.

— Ie, hali ertaga Londonga jo‘nab ketmaysizlarmi? — ajablandi Jorj.

— Yo‘q, bu gapni qaerdan topdingiz?

Jorj yelka qisdi:

— Men kecha qishloqda xo‘jayinni uchratib qoldim. U ertaga siz bilan Londonga uchib ketayotganini aytdi. Qachon kaytishimiz noma’lum, dedi.
— Shunga shunchami, — kuldi Aliks. — Siz uning gapini boshqacharoq tushungan bo‘lsangiz kerak.

U aslida Jerald haqiqatda cholga nima degani bilan astoydil qiziqayotgandi. Londonga borish? U shu paytga qadar bu haqda o‘ylab ham ko‘rmagandi.
— Londonni ko‘rgani ko‘zim yo‘q, — uning og‘zidan bexos ana shu so‘zlar uchdi.

— A-a, men chindan ham uni boshqacharoq tushungan bo‘lsam kerak, — dedi xotirjam tovushda Jorj. — Lekin u aniq shunaqa devdi-da... Baribir siz shu yerda qolayotganingiz uchun ham xursandman. Ochig‘i, London menga ham yoqmaydi. U yerga borib nima kilaman. Hozir u yerda mashinalar shunaqa tiqilib ketgan deyishadi. O‘zi odam mashina olishi bilan bir joyda turgisi kelmay qolarkan. Ana, mening avvalgi xo‘jayinim mister Eymz, mashina olmasidan avval ajoyib, og‘ir-bosiq odam edi. Bir oy o‘tmay uyini sotar bo‘ldi. U uyni ta‘mirladi, har bir xonaga elektr, gaz, telefon olib kirdi. Unga buncha xarajat o‘zini qoplamaydi, desam, u "bilasanmi, men bu uyni naq ikki ming funtga pullayapman", dedi. Mana, aytganicha bo‘ldi.

— U uyini uch mingga sotdi, — deya cholning gapini to‘g‘irladi Aliks.
— Ikki ming, — kaytardi Jorj. — bu haqda necha marta eshitganman. Hamma bilardi buni.

— Men bilaman-ku, uch mingni sanab berganmiz, — deya gapida turib oldi Aliks.

— Ayollar hisob-kitobda no‘noqrok bo‘lishadi, — dedi Jorj ham qaysarlik bilan.
— Siz mister Eymz aynan uch ming funt so‘raganini isbotlay olasizmi?

— U men bilan emas, erim bilan savdolashgan.

Jorj yana gullar ustiga egildi.

— Uy ikki mingga sotilgan, — deya o‘z gapida mahkam turib oldi.

Aliks u bilan boshqa bahslashib o‘tirmadi. U uzoqroqdagi gullar tupi oldiga borib guldasta tuza boshladi. U gullarni bag‘riga bosib, uyga qaytarkan, yo‘lda, barglar orasida allaqanday to‘q-zangori rangli narsa yotganini ko‘rdi. Avaylab qo‘liga oldi. Erining qayd daftarchasi ekan. Qiziqish bilan ochib o‘qishga tutindi. Aliks to‘yning ilk kunlaridanoq erining o‘ta hissiyotchan, tabiatan qat‘iyatli va favqulodda tartibsevarligi bilan boshqalardan ajralib turishini payqab olgandi. Ular birgalikda ovqatni ham aynan bir vaqtda yeyishar, u har bir kunda

qilinadigan ishlari uchun o'z vaqtini avvaldan tartib bilan ajratib qo'yardi. U daftarchani varaqlarkan, mana bu yozuvlarni o'qib kulgudan o'zini tutib turolmadi: "Alik bilan nikoh. Avliyo Pyotr cherkovi, soat 2.30" "Jinnivoy" — dedi jilmayib Alik boshqa sahifani ocharkan. Mana bugungi sana. Jerald husnixat bilan yozgandi: "Kechqurun, soat 9.00". Shundan boshqa hech gap yozilmagan. "Qiziq, u bugun soat to'qqizda nima qilmoqchi ekan?" — ajablendi Alik. "Agar Jerald birorta ayolga ilakishib qolgan deya gumon qilinsa, bu maxfiy daftarchada biror belgi-alomat topilardi", o'yladi Alik sirli kulimsirab. Biroq, unda birorta begona ayolning ismi bitilmagan edi. Alik erinchoqlik bilan daftarchaning qolgan betlariga ham qarab chiqdi: allaqanday sanalar, tushuniksiz belgilar va birgina ism — Uning ismi bitilgan edi bu yerda. U daftarchani kissasiga solib uyiga kirib ketdi. Biroq, shu asnoda uning yuragiga allaqanday xavotir oqib kirganini his etdi. Qulog'i ostida Dikning gaplari aniq-tiniq takrorlangandek bo'ldi:

— U senga yetti yot begona-ku? Axir, sen u haqda hech narsa bilmaysan-ku? Rost. U haqda ilgari hech narsa bilmasdi-ku? Jeraldning yoshi qirqda. Shu paytgacha birorta ayol bilan birga bo'lmaganligiga kim kafolat beradi? U bular haqida o'ylashni istamasdi. Hozir bundan ham zarur ishlari bor edi. Dik Vindifordning qo'ng'irog'i haqida eriga aytsamikin? U qishloqda Jerald bilan uchrashib qolishi ehtimoldan xoli emas. Shunda eri uyga qaytganida o'zi bu haqda gap ochib qolsa, mushkulot o'z-o'zidan hal bo'ladi. Ochig'i bu haqda Alikning ham eriga hech narsa degisi yo'q. aytgudek bulsa, eri Dikni mehmonga chaqirishdan ham toymaydi. Unaqada Dikning o'zi kelmoqchi bo'lgani, Alik esa bunga ro'yxushlik bermaganini tan olishi kerak bo'ladi. Jerald xotinidan buning boisini so'rab qolsa nima bo'ladi? Anavi almoyi-aljoyi tushini aytib beradimi? Xullas, u xijolatdan qiynalib, oxir-oqibat eriga bu haqda og'iz ochmaslikka qaror qildi. Bu uning eridan yashirmoqchi bo'lgan birinchi siri edi. Kechki ovqat mahali yaqinlashayotganda, u erining qaytayotganini eshitib, o'zining xavotir va hadigini yashirish maqsadida yemak tayerlashga unnab ketdi. Aftidan u qishloqda Dik bilan ko'rishmagan edi. Alik xotirjamlik barobarida allanechuk noqulaylikni ham his etdi. Iforli oqshom havosi oqib kirayotgan deraza oldidagi eman stol atrofida ikkovlon kechki ovqatni tanovul qilib bo'lishgach, Alik haligi daftarchani eslatdi.

— Ertalab gullar orasidan topib oldim, — dedi u qo'lidagi buyumni erining tizzasiga tashlarkan.

— Bog'da tushirib qodirgan bo'lsam kerak-da!

— Ha, endi sening ancha-muncha sirlaringni bilib oldim.

— Hech qanday gunohim yo‘q — deya bosh chayqadi Jerald.

— Bugun kechqurun soat to‘qqizda kim bilan uchrashmoqchi eding?

— Ha, gap buyoqda degin? — u avval biroz dovdirab qoldi, biroq shu zahoti birorta kulguli voqeani eslaganday iljayib qo‘ydi, — Juda chiroyli bir qiz bilan uchrashuvimiz bor edi — Aliks bilan. Uning sochlari xuddi senikidek qo‘ng‘irrang, ko‘zlari moviy.

— Tushunmadim, — dedi Aliks yasama jiddiyat bilan. — Nega gapni aylantiryapsan?

— Yo‘q, bilasanmi, bugun bir-ikkita negativ suratlarimni oqqa ko‘chirishim kerak edi. Shuni esimdan chiqarmaslik uchun yozib qo‘ygandim. Unda sening ham yordaming kerak. Jerald Martin havaskor suratgir ham edi. Uningg eskiroq uslubdagi, ammo o‘tkir linzali fotoapparati bor edi, suratlarni fotolaboratoriya vazifasini o‘taydigan yerto‘lada oqqa ko‘chirardi.

— Shu ishni aynan soat to‘qqizda qilish shart ekanmi, — so‘radi Aliks ishonchsizlik bilan.

— Jonginam, — dedi uning ovozi biroz titrab, — bilasan, men hamma vaqt puxta reja asosida ishlayman. Shunda hamma ishlar o‘z o‘rnida bo‘ladi. Aliks anchagacha eriga qadalib jimgina o‘tirdi. Eri stul suyanchig‘iga suyanganicha sigaret tutatdi. Uning hafsala bilan qirtishlangan yuzlaridagi uzun-uzun chiziqlar g‘ira-shira yorug‘da ham yaqqol ko‘rinib turardi. Kutilmaganda ayolni mavhum bir vahima o‘z iskanjasiga oldi va ichidan bir savol yorib chiqdi:

— O Jerald, sen haqingda ko‘proq, ko‘proq narsa bilishni istayman. Er ajablanib xotiniga o‘girildi:

— Azizim, Aliks. Axir men haqimda hamma narsani bilasan-ku? Senga Nortumberlendda kechgan bolaligim, Janubiy Afrikada yashaganim, keyin o‘n yil Kanada umguzaronlik qilganim va o‘sha yerda o‘zimga yarasha boylik orttirganim haqida senga aytib berganman.

— Bor yo‘g‘i shu xolosmi, — so‘radi Aliks iljayib.

— Ha-a, seni nima qiziqtirayotganini bildim, — deya kutilmaganda qah-kah urib yubordi Jerald. — Siz ayollar hammangiz birsiz. Sizni birovning shaxsiy hayotidan bo‘lak narsa qiziqtirmaydi.

Aliks tomog‘i quriyotgani his etdi va past ovozda g‘udrandi:

— Axir, sen shu paytgacha baribir begona ayollar bilan bo‘lgansan-ku? Men aytmoqchi edimki... agar bilganimda edi...

Jim qoldi. Jerald qovog‘ini uydi:

— Alik, sen haligi... "Ko‘k soqol xosxonasi" haqida eshitganmisan? To‘g‘ri, men shu paytgacha, ayollar bilan bo‘lganman. Buni tan olaman. Inkori etganimda ham baribir ishonmagan bo‘lar eding. Biroq ont ichib aytamanki, ular mening qalbimda senchalik chuqur o‘rnashib olmagandi.

Uning ovozdagi samimiyat ohangi Alikni biroz tinchlantirdi.

— Ko‘ngling joyiga tushdimi? — so‘radi jilmayib Jerald.

Daf‘atan uning nigohida nedir qiziquvchanlik alomati zuhur etdi.

— Nimaga bugun g‘alati narsalar haqida gapirib qolding?

— O‘zim ham bilmayman. Kun bo‘yi asabiylashib yurdim.
— Qiziq, — dedi Jerald o‘ziga-o‘zi gapirgandek yarim ovozda. — Juda qiziq.
— Nimasi qiziq?

— Asalim, nega menga bunaqa qarayapsan. Shunisi qiziqki, sen ilgari juda beg‘am va erkato‘y eding. Bugun bunaqa...

Alik zo‘rma-zo‘raki iljaydi:

— Atayin qilganday bugun hamma narsa mening asabimga tegyapti. Anavi qari Jorj ham ertalabdan Londonga qachon ketasizlar, deb g‘ashimga tegdi. U bu gapni sendan eshitganmish.

— Sen uni qaerda ko‘ra qolding? — Jeraldning ovozi tuyqus jaranglab chiqdi.
— U biznikiga bugun juma kunining o‘rniga ishlagani kelibdi.
— La‘nati qari to‘nka, — dedi Jerald tishlarini g‘ijirlatib. Alik Jeraldning afti g‘azabdan bujmayib ketganini ko‘rib hayron bo‘ldi. U erini hecham bu qiyofada ko‘rmagandi. Ayolning nigohidagi taajjubni ko‘rgan Jerald darrov izohot berishga o‘tdi:

— Chindan ham cholning esi og‘ib qolganga o‘xshaydi.

— Axir, senam biror narsa degandirsanki, u...

— Menmi? Hech narsa deganim yo‘q. Ha, darvoqe.. Haligi,.. Bo‘ldi-bo‘ldi, esladim. Men unga hazillashib London boryapmiz, devdim, u ovsar chin deb o‘ylagan. Ehtimol, noto‘g‘ri eshitgandir. Sen unga tushuntirgandirsan?

— H-ha.. Lekin u eshitganini qo‘ymaydigan qaysar chollar toifasidan ekan. Aliks eriga Jorjning uy ikki ming funtga sotilgan, deb turib olganini ham aytib berdi. Jerald bir muddat jim qoldi-da, pastak ovozda shivirladi: — Eyms ikki mingni oldindan sanab oldi. Qolgan ming funtni keyinroq to‘g‘rilab beradigan bo‘ldim. Chol mana shu yerida yanglishgan ko‘rinadi. — Mana, hammasi oydinlashdi, — dedi Aliks yengil tortib. — U shunday deya devorga ilingan soatga imo qildi, — Endi ishga kirishsak ham bo‘ladi. Besh daqiqa kechikibmiz ham. Jeraldning yuzida tushuniksiz tabassum qalqidi: — Men o‘ylab ko‘rdim, — dedi xotirjam tovushda. — bugun suratlashlik bilan shug‘ullanmasak ham bo‘ladi.

Ayol tabiatan o‘ta qiziquvchan. Aliks uxlagani ketayotganida xotirjam va bexavotir edi. Uning baxti uzra soya solayotgandek ko‘ringan bulutlar tarqalib ketgandek edi go‘yo. Biroq, ertasi kechqurun u baxtiga yana kimdir, nimadir ko‘lanka tashlayotganini his etdi. Dik Vindiford boshqa qo‘ng‘iroq qilmagan bo‘lsa-da, nazarida undagi sarosimaning sababchisi ham o‘sha edi. Uning gaplarini qayta-qayta esladi: "Bu odam senga yetti yot begona-ku! Sen u haqda hech narsa bilmaysan!" Shu choq uning yodiga erining kechagina aytgan gaplari tushdi: "Ko‘k soqol xosxonasi haqida eshitganmisan?" U bir paytlar o‘ta sirli, beshafqat va ayyor xotinboz — Ko‘k soqol haqidagi ertakni bolaligida o‘qigandi. Hozir eri nega uni esga oldi? Bu bilan mening shaxsiy xayotimga aralashma, oqibati yomon bo‘ladi, demoqchimi?

Juma kuni ertalab, Jerald zo‘r berib yashirishga tirishayotgan boshqa ayoli — "Ko‘k soqol xosxonasi" borligiga amin bo‘ldi. Yuragida sekin-sekin uyg‘onayotgan rashk uni tamomila mahf eta bordi. O‘sha kuni soat to‘qqizda u uchrashuv belgilagan! Surat ishlash esa, shunchaki o‘ylab topilgan bahona xolos. Bundan uch kuncha ilgari u erini ipidan-ignasigacha bilishiga ont ichishi mumkin edi. Bugun esa, eri unga mutlaqo notanish odam bo‘lib ko‘rinyapti. Uning keksa Jorjga nisbatan uyg‘ongan o‘rinsiz qahrini esga oldi. U avvalgi quvnoq va samimiy Jeraldga o‘xshamay qolgandi. Chindan ham Aliksni g‘aflat bosgandir? Ehtimol xaqiqatan u erining kimligini umuman bilmas? Juma kuni u ul-bul xarid qilish uchun qishloqqa borishi kerak edi. Bu xaqda Jeraldga aytganida, eri mutlaqo rad javobini berdi va uning bog‘da qolishini, qishloqqa o‘zi borib kelishini aytdi. Bu ham ayolning taajjubini oshirdi. Qiziq, nega eri uning kishloqqa borishiga tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatyapti? Balki, Jerald unga bir og‘iz gapirmasdan borib Dik bilan uchrashib kelmoqchidir? Axir Aliksning shu paytga qadar mudrab yotgan rashki ham hozirgina uyg‘ondi-ku? Jeraldni ham shu tuyg‘u qiynayotgan bo‘lishi mumkin emasmi? Eri uning Dik bilan qayta uchrashmasligi uchun qishloqqa

yubormayotgan bo'lsa-chi? Ana shu fikr ayolni bir muncha ovuntirdi, shubhali o'y-xayollarin nariroq surdi.

Vaqt o'tgani sari besar gumonlar yana uni qisti-bastiga ola boshladi. U ana shu bema'ni hislar qurshovidan chiqish uchun o'zini ish bilan ovuntirmoqchi bo'ldi. Qo'liga latta olib erining xonasini yig'ishtirishga kirib ketdi. "Qaniydi ishonchim komil bo'lganida, hamma azoblardan qutular edim", deya shivirladi o'ziga-o'zi.

U faqat ikkita qutini qaray olmadi: bittasi pastdagi g'aladon, ikkinchisi yozuv stolining chap tarafida turgan kichkina quticha. AlikS ayni chog'da hech narsani mulohaza qilib o'tirmadi. U ana shu ikki qutining birida erini fosh etishi mumkin bo'lgan ashyoviy dalil topilishiga umid qilardi. Shu asnoda eri o'ziga tegishli kalitlarni bufetning pastki tortmasiga qo'yishini esladi. U kalitlarni keltirib sandiqchalarga solib ko'ra boshladi. Uchinchi kalit yozuv stolidagi sandiqchaga to'g'ri keldi. AlikS hayajondan qo'llari qaltirib uni ochdi. Unda pullar solingan qopchiq turar, sandiqning orqa bo'lmasidan bir bog'lam maktub chiqdi. AlikS nafasi tiqilgudek bo'lib, tasmani yechdi. Uning yuzlari shu zahoti uyatdan lovullab ketdi va xatlarni joyiga qo'yib tezgina qutini berkitdi. Bu xatlarni Jerldga to'yga qadar uning o'zi yozgandi. U endi g'aladonga yopishdi — Jerldga nisbatan shubhalari tamomila barham topguncha hamma narsaga tayyor edi. U qidirmoqchi bo'lgan joyidan biror narsa chiqishiga ko'zi yetmasa-da, hamon asabiy titrog'i bosilmagandi.

Aksiga olib, birorta ham kalit bu sandiqqa tushmas ekan, ko'ngli hamon tipirchilab turgan AlikS bir zum qaysidir xonadan yana bir shoda kalit topib keldi. Nihoyat, komod ochildi. Biroq u yerda ham vaqt o'tib, sarg'ayib ketgan, chang-g'ubor bosgan gazeta parchalaridan bo'lak hech narsa yo'q edi. AlikS yengil xo'rsindi. Uni endi fakat bir narsa – necha yillardan beri saqlanib kelayotgan gazet qiykimlarigina qiziqtirardi. Ularning deyarli bari ancha yil ilgari chop etilgan Amerika gazetalaridan qirqib olingandi. Bu parchalarda ashaddiy xotinboz va firibgar Charlz Lemetrning kirdikorlari haqida yozilgandi. Ularda aytilishicha, Lemetr o'z to'riga ilingan ayollarni o'ldirishda ayblanayotgandi. U ijaraga olgan uyning poli ostidan ayol kishining gavda suyagi topilgan, u "uylangan" ayollar haqida keyinchalik hech kim hech narsa eshitmagan. U o'ziga bildirilgan ayblovdan ustomonlik bilan himoyalaniish maqsadida AQShning eng kuchli advokatlaridan birini yollab olgandi. Shotlandiya hakamlik sudi uning ishini ko'rib chiqib, yetarli asos bo'lmagani bois, oqlashga majbur bo'lgandi. Shu bois u asosiy ayblovdan eson-omon qutalib chiqdi, biroq, kichikrok bir jinoyati uchun bir necha yil qamoqda o'tirib chiqdi.

Aliks bu hakda eshitgan, Lemetr haqidagi shov-shuvlar bir patlar Angliyani ham tahlikaga solgan edi. Ayol bundan uch yil ilgari Lemetrning qayoqqadir qochib ketgani haqida ham eshitgan edi. Uni tuta olishmadi. bu mavhum kimsaning shaxsi va uning ayollar ustidan vahshiena hukmronligi uzok muddat ingliz gazetalaring ham diqqat markazida turgan edi.

Gazet parchalariining birida Lemetrning surati bosilgandi. Aliks ziyolisifat soqol qo‘ygan qonxo‘rning suratiga anchagacha diqqat bilan tikilib turdi. U kimgadir o‘xshab ketardi. Birdan uning esiga Jerald tushdi-yu, a‘zoi badaniga qaltiroq yugurdi. Suratdagi odamning qosh-ko‘zlari xuddi Jeraldniki edi. U surat ostidagi matnni o‘qishga tutindi. Unda keltirilan ayrim sanalar Aliks tasodifan topib olgan daftarchadan kayd kilingan raqamlarga aynan mos tushardiki, bu kunlarni Lemetr o‘z qurbonlarini tinchitish uchun belgilab qo‘ygan edi.

Sudda guvoh sifatida so‘roq qilingan ayollardan biri ishonch bilan qotilning chap bilagida kichkina chandiq borligini aytgan edi. Aliks qo‘lidagi qog‘ozlarni hayajonda tushirib yuborganini sezmedi. Axir Jeraldning ham xuddi chap bilagidagi ana shunday chok bor edi-ku?

Butun xona uning nazarida charxpalakdek aylana boshladi. Es-hushi sal joyiga kelganida miyasiga urilgan narsa shu bo‘ldi: Jerald Martin — bu Charlz Lemetr. Boshqacha bo‘lishi mumkin emas. Xuddi jumboq suratning tarkibiy qismlari singari xotirasida ayrim lavhalar jonlana boshladi: uy uchun to‘langan pul... Bu pul uniki, fakat uniki ekan, eri yonidan bir chaqa ham qo‘shgan emas. Demak, ko‘rgan tushi ham bejiz emas ekan. Demak, u savqi tabiiy ravishda Jerald Martindan xafsirab, undan xalos istab kelgan. Va yordamni ham savqi tabiiy suratda Dik Vindiforddan kutgan ekan. Demak u Lemetrning navbatdagi qurboni bo‘lishi lozim edi. Ehtimol tez orada...

U daftarchadagi "Chorshanba kech sat 9. 00" qaydini eslab dodlab yuborayozdi. Yodiga devoridan osongina tosh ko‘chirib olish mumkin bo‘lgan yerto‘la tushdi. Demak, hammasi kecha chorshanba kuniga rejalashtirilgan. Lekin, tarki odat qilinmay, bu fursatni oldindan yozib qo‘yish... mantiqsizlik emasmi? Yo‘q, hammasi mantiqqa asoslangan. Jerald xamma narsani avvaldan rejalashtirib, belgilab yurgan. Qatl uning uchun shunchaki ko‘ngilxushlikka o‘xshash oddiy bir ishga aylanib qolgan.

Biroq, uning ustidan o‘qilgan hukm ijrosi nima sababdan orqaga surildi? Uni kim yoki nima qutqarib kolgan bo‘lishi mumkin? Eng so‘nggi daqiqalarda?... Bo‘ldi, esladi: Keksa Jorj! Nima sababdan eri uning nomini eshitishi bilan ko‘karib ketganini ham endi tushundi. Shaksiz, u rejasini izsiz amalga oshirish uchun

puxta zamin hozirlagan: ko‘ziga ko‘ringan odamga ertaga Londonga uchamiz, deb yurgan. Kutilmaganda Jorj boqqa kelib qolgan, bu haqda Aliksni voqif etgan, ayol bu gapni inkor qilgan va hokazo. O‘sha kuni hukmni ijro etish juda xatarli — chol ayolning gapini eslab qolgan bo‘lishi mumkin edi. Demak, uni xudoning o‘zi asrabdi. Agar Aliks arzimasdek tuyulgan o‘sha suhbat haqida eriga og‘iz ochmaganida bormi? Aliksning eti muzlab ketdi.

Har daqiqqa g‘animat edi. U eri kelmay turib bu yerdan qochib qolishi kerak. Aliks shosha pisha gazet parchalarini joyiga qo‘yib, g‘aladonni berkitdi. Ammo, zum o‘tmay u joyida qotib qoldi. U darchaning g‘iyqillaganini, qadam tovushlarini eshitdi: E r i q a y t i b d i. Bir muddat Aliks harakatsiz qotdi. Keyin u oyoq uchida yurib bordi-da, parda ortidan tashqariga qaradi. Chindan ham eri. Iljayganicha allaqanday qo‘shiqni xirgoyi qilib kelardi. Aliks uning qo‘lidagi narsani ko‘rib qo‘rquvdan yuragi yorilayozdi. Yap-yangi belkurak! Aliks bu oqshom qanday mudhish fojea sodir bo‘lishiga aqli yetdi... Biroq, qutulib ketish uchun hali imkon bor edi. Jerald xirgoyini vang qo‘yib uy tarafga burildi. Aliks ham fursatni boy bermay pastga otildi. Biroq, uydan chiqmay turib ostonada eri bilan to‘qnash keldi.

— Hello, qayoqqa shoshilyaptilar? — ajablanib so‘radi Jerald. Aliks o‘zini har doimgidek vazmin va xotirjam tutishga tirishdi. Hozir qochib ketish uchun hech kanday imkoniyat yo‘q, ammo sir boy bermay tursa, bu imkoniyat sal kechroq tug‘ilishi mumkin edi. Hatto, hoziroq...

— Men manavi so‘qmoq bo‘ylab sayr qilib kelmoqchiydim. Darrov qaytaman.

— Aliks gaplari biroz soxta va ishonchsiz chiqqanini sezdi.

— Yaxshi, dedi Jerald, — Men ham sen bilan boraman.

— Yo‘q, iltimos... shart emas. Jerald, men... Boshim qattiq og‘riyapti. Asablarim qaqshayapti. Bir o‘zim borib kela qolay.

Eri unga diqqat bilan razm soldi. Ayol uning ko‘zlaridagi shubhani tezgina ilg‘adi.

— Nima bo‘ldi senga Aliks? Nega ranging buncha oqarib ketgan?

Buncha qaltirayapsan?

— Hech qisi yo‘q, — Aliks bor kuchini to‘plab tabiiyroq jilmayishga tirishdi, — Shunchaki, bosh og‘rig‘i-da! Bitta aylanib kelsam, hamasi o‘tib ketadi.

— Sen o‘zingni mendan opqochishga behuda urinyapsan, — to‘ng‘illadi Jerald tirjayib, — Xohlaysanmi-yo‘qmi, sen bilan birga boraman.

U qattiq turib olmadi. Agar eri uning hamma narsadan xabardorligini bilib qolsa, bormi? U ming mashaqqat bilan o'zini qo'lga olishga va odatdagidek sokin tutishga harakat qildi. U sarosima ichida erining unga tez-tez shubhali ko'z tashlab qo'yayotganini sezdi.

Ular uyga qaytishganida, eri uni yotishga ko'ndirdi va odekolon keltirib, xotining chakkasini artib qo'ydi. U har doimgidek mehribon va samimiy edi. Ayol o'zini xuddi jahannamga qulab ketayotganday ojiz va bechora his etdi. Eri uni bir daqiqa ham yolg'iz qoldirmasdi. Hatto, oshxonadan Aliks sal ilgari tayyorlab qo'ygan oddiygina kechki ovqatni olib kelishga ketganida ham eri uning ketidan qolmadi. Dasturxon atrofida Aliksning tomog'idan biror luqma taom o'tmasa-da, o'zini majburlab ul-bul narsa yegan bo'ldi, o'zini imkon kadar quvnoq va tetik tutishga tirishdi. U ayni chog'da hayoti uchun kurashayotganini bilardi. U hozir o'z kushandasi bilan yuzma-yuz turar, hech qaerdan najot kutib bo'lmas, kishloq esa bu yerdan bir necha mil olisda edi. Faqat birgina yo'l bor edi, vaqtincha bo'lsa-da, erining shubhalarini o'ldirib, uni bir necha daqiqa yolg'iz qoldirish uchun zamin yaratish. Bu paytda u zalga tushib telefon orqali najot so'rashi mumkin edi xolos.

Ittifoqo, boshqa tarafdin xalos topish umidi tug'ildi. Shu onda u birinchi marta Jeraldning o'z fikridan qay tariqa qaytgani yodiga tushdi. Bugun ularnikiga Dik Vindiford kelmoqchi ekanini aytsa, nima bo'larkin? U endigina shunga og'iz juftlaganida, nimanidir o'ylab, fikridan qaytdi. Bu kimsaga ikki karra xalaqit berish qiyin. Uning zohiriy osudaligi zamirida qanday ayyorona sergaklik yashiringani ma'lum. Bu gapi bilan ayol jinoyat fursatini yanada yaqinlashtirishi mumkin. U shu zahoti Aliksni o'ldirib, Dikka qo'ng'iroq qiladi va bamaylixotir shoshilinch jo'nab ketyapmiz, deb aytishi ham mumkin. Eh! Rostdan ham Dik kelib qolsami edi?.. Shu topda uning miyasiga ajoyib fikr keldi. U fikrimni ko'zimdan o'qib qolmasmikin, deya qo'rqa-pisa eriga karab qo'ydi. Uning qalbida umid shu'la socha boshlagach, vujudiga jasorat va g'ayrat oqib kirganini payqadi. U shu qadar osuda tusga kirdiki, o'zi ham hayron qoldi. U qahva qaynatib, er-xotin har doim kechki payt ochiq havoda gaplashib o'tiradigan ayvonchaga olib keldi.

— Aytganicha, — dedi qo'qqisdan Jerald, — Bugun sen bilan sal keyinroq surat ishlaymiz, bo'ptimi?

Ayolning badanida chumoli o'rmalagandek bo'ldi, biroq befarq ovozda gap qotdi:

— Bir o'zing qilsang bo'lmaydimi, shu ishni? Bugun ancha charchagan ko'rinaman.

— Ishimiz uzoqqa choʻzilmaydi, — deya sovuk tirjaydi Jerald. — Aytgancha, seni ishontirib aytamanki, ishimiz bitgach, charchoqni mutlaqo his etmay qolasan. Bu gapi uning oʻziga ham nashʼa qilib ketdi. Aliks bir qalqib tushdi. U oʻz rejasini yo hozir amalga oshirishi mumkin, yoki hech qachon. Shartta oʻrnidan turdi.

— Qassobga telefon qilishim kerak, — dedi bepisandlik bilan. — Ungacha shu yerda oʻtirib tur.

— Qassobga? Shu mahalda-ya?

— Jinni, hozir magazin allaqachon yopilib boʻldi. Qassob esa, uyida boʻladi. Ertaga shanba. Toʻqmoqlangan buzoq goʻshtini boshqalar ilib ketmasdan buyurtma berib qoʻyishim kerak. Bechora chol meni judayam yoqtiradi. U ship etib xonasiga kirib ketdi va eshikni yopib oldi. Orqadan erining "Eshikni ochiq qoldir", deganini eshitdi va sovuqqonlik bilan javob qaytardi: — Ochiq eshikdan chivin uchib kiradi. Chivinni koʻrgani koʻzim yoʻq. Tentakkinam, sen hali meni oʻsha qassob chol bilan shakarguftorlik qiladi, deb oʻylayapsanmi?

U xonada yolgʻiz qolishi bilan "Sayyoh tugʻrosi" mehmonxonasining raqamini terdi. darrov tusha qoldi:

— Bu mister Vindifordmi? Boshqa? Nima u ketib qoldimi? Uni chaqirib bera olmaysizmi?

Shu payt uning yuragi qinidan chiqayozdi. Eshik ochilib eri kirib keldi.

— Chiqib tur, Jerald, — dedi ranjigan tovushda, — Telefonda gaplashayotganimni birov eshitmasin deyman.

Jerald kulimsirab stulga oʻtirdi:

— Oʻzi rostdan ham kassob bilan gaplashayapsanmi?

Aliks qattiq hayajonda edi. Uning rejasi barbod boʻlgandi.

Hozir Dik goʻshakni oladi. Balki tavakkal kilib telefondan yordam soʻrab qichqirsami? U asabiylashib telefon richagini bir qisib, bir boʻshata boshladi. Shu pallada uning kallasiga yangi fikr tugʻildi. Richagni bosib tursa, ovoz nariga tarafga eshitilmaydi.

"Bu ishni amalga oshirish juda qiyin boʻlsa kerak, — oʻyladi u.— Men oʻzimni faqat qassob bilan gapirayotgandek tutishim, xayajonga berilmasligim kerak. Bu ish mening qoʻlimdan keladi, ishonaman."

Shu choq go'shakdan Dikning ovozi eshitildi. U chuqur nafas olib richagni bo'shatgancha gapira boshladi:

— "Bulbul oshiyoni"dan Missis Martin gapiryapti. Iltimos tezroq yetib keling. richagni maxkam qisib ertaga ertalab olti bo'lak yaxshilab to'qmoqlangan buzoq go'shti opkeling./richagni bo'shatib/ Kelishinigizshart./yana richagni qisib/ Tashakkur sizga mister Xeksuorsi. O'ylaymanki, buncha kech qo'ng'iroq qilayotganimdan ranjimasangiz kerak. Kotletni shunaqa yaxshi ko'ramanki, u /richagni bo'shatib/ bo'lmasa, o'lib qolishi m hech gap emas. /yana richagni bosib/ juda yaxshi — ertaga kutaman-a? /richagni bo'shatib/ Iloji boricha tezroq!
— U go'shakni ilib, ux tortganicha eriga yuzlandi:

— Qassob bilan ajoyib gaplashib qo'yding-da, a? — dedi Jerald undan ko'z uzmay.

— Odatdagidek, xuddi boshqa ayollar kabi, — dedi Aliks o'pkasini arang bosib. Jerald hech narsadan shubhaga tushmadi. Dik esa, hech narsani tushunmagan bo'lsa-da, yetib kelishi aniq.

Ayol yotoqxonaga kirib chiroqni yoqdi. Orqasidan eri kirdi. — Aftidan hozir kayfiyating a'lo bo'lsa kerak? — so'radi xotiniga sirli tikilib. — Ha, dedi xotini, — Boshimning ham og'rig'i qoldi. U eriga tabassum uzatganicha doimiy joyidan, eri o'tiradigan kursining qarshisidan joy oldi. U xalos bo'ldi. Hozir sakkizdan yigirma minut o'tdi. Soat to'qqizgacha Dik yetib keladi.

— Bugungi qahva menga uncha yoqmadi, juda achchiq damlabsan, — shikoyatlandi Jerald.

— Bu qahvaning yangi navi ekan. Agar u senga yoqmagan bo'lsa, bunaqasidan endi olmaganim bo'lsin, azizim.

Aliks qo'liga igna olib to'qishga o'tirdi. Jerald mutolaaga berildi. U bir necha sahifani tugatib, soatga qaradi va kitobni bir chetga irg'itdi:

— Sakkiz yarim. Yur, yerto'laga tushib surat ishlaydigan vaqt bo'ldi. To'qiyotgan narsasi Aliksning qo'lidan tushib ketdi.

— Yo'q, yo'q. Kel to'qqizgacha kutaylik!

— Yo'q, asalim, soat sakkiz yarim. bu ishni kechiktirib bo'lmaydi. Shu vaqtda belgilab qo'yganman. Senam vaqtliroq uxlaysan.

— Negadir to'qqizgacha kutgim kelyapti.

— Hamma ishni o‘z vaqtidan kechiktirmaslikka o‘rganganimni bilasan-ku. Ketdik, Aliks. Bir daqiqa ham kuta olmayman. Aliks unga qaradi-yu, rangi bo‘zdek oqarib ketdi. Eri allaqachon niqobini yechib tashlagandi. Uning qo‘llari asabiy qaltirar, ko‘zlari bejo, qurigan lablarini tinimsiz yalardi. U endi o‘z tug‘yonini tutib turish holatida emasdi. "Rost-da, — o‘yladi Aliks, — Har qancha toqatli bo‘lmasin, bundan ortiq kutib tura olmasdi". Jerald uning yoniga keldi va yelkalaridan tutib o‘rnidan turg‘izdi.

— Qani azizim, o‘zim seni u yoqqa olib boraman, — uning quvnoq ohangda aytilgan bu gaplaridan kishini dahshatga solguvchi qabohat isi kelardi. Ayol so‘nggi kuchini jamlab erining qo‘lidan yulqinib chiqdi va qurquvga yon berib, behol devorga suyandi. U alhol hech narsa qilolmas, hech kaerga qocholmas, erkak esa, uning ustiga bostirib borardi:

— Xo‘sh, Aliks...

— Yo‘q-yo‘q!

U qichqirgancha qo‘llarni ojizona oldinga cho‘zib, o‘zini himoya qilishga chog‘landi:

— Jerald, shoshma. Senga bir gapni aytishim,.. iqror bo‘lishim kerak. Eri birdan sergak tortdi:

— Iqror bo‘lmoqchisan? — so‘radi ajablanib.

— Ha, iqror bo‘lishim kerak.

U bir muddat o‘yga toldi-da, tezda to‘lqinlanib, erini qiziqtirishga davom etdi.

— Nima, o‘ynashing bormidi? — so‘radi masxaramuz iljayib.

— Yo‘q, unaqamas... Ehtimol sen buni... sen buni jinoyat deb atashing mumkindir?

U o‘q borib nishonga tekkanini, erining qiziqishi ortib borayotganini ko‘rib biroz tinchlandi va o‘zini vaziyat hokimi sanab gapida davom etdi:

— Joyingda o‘tirib olsang tuzik bo‘lardi, — dedi Aliks sokinlik bilan va o‘zi ham xonaning narigi kunjidagi stolga o‘rnashdi. Hatto egilib, boya qo‘lidan tushib ketgan to‘quv ishini ham oldi. U zohiriy sokinlikni saqlagan holda ichki tahlika bilan vaqtni najot kuchlari yetib kelguncha cho‘za oladigan gaplarni o‘ylab olish uchun bir muncha taraddudlandi.

— Senga avval xam aytganman, — dedi sekin ohangda, — Men o‘n besh yil stenogrffist bo‘lib ishlaganman. Aslida ja unaqamasdi. Ikki marta ishimda tanaffus bo‘lgan. Birinchisida yigirma ikki yoshda edim. O‘shanda o‘ziga yarasha sarmoyasi bo‘gan, keksa bir kishi bilan tanishib qoldim. U meni yoqtirib qoldi va

turmush qurishni taklif qildi. Uning gapini yerda qoldirmadim. Oila qurdik. — U bir muddat jimib qoldi, — Uni aldab-suldab, o'z hayotini sug'urta qildirishga ko'ndirdim.

Shunda Aliks erining yuzida qat'iy qiziqish ifodasini ilg'ab oldi. U endi o'ziga ishonch bilan hikoyasini davom ettirdi. — Urush paytida oz muddat gospitaldagi aptekada ishlaganman. O'shanda dori-darmon, hatto, zaharli moddalar bilan ham ishlashga to'g'ri kelgan.

U bir narsani o'ylayotgandek jim qoldi. U erining e'tiborini tamoman jalb etganiga shubha qilmasdi. Qotilni qotillik qiziqtiradi-da! Ayol mahorat bilan o'z rolida davom etardi. O'g'rincha soatga qaradi: yigirmata kam to'qqiz. — Shunaqa bir zahar bo'ladi. Oppoq kukunga o'xshaydi. Bir chimdimi odamni o'ldiradi. Sen shunaqasi xaqida eshitganmisan?

U javobni hadik aralash kutgandi. Agar tasdiq javobi olinsa, gapni bu yog'ini sal o'ylabroq gapirishga to'g'ri kelardi.

— Yo'q, — dedi Jerald. — Bilsam ham oz narsa bilaman. Aliks qoniqish bilan bosh irg'adi:

— Unda giostsiamin xaqida eshitgan bo'lsang kerak. Bu zahar xech kanday iz qoldirmaydi. Har qanday vrach oddiy yurak xuruji deya tashxis qo'yishdan nariga o'tmaydi. Men o'shandan ozgina o'g'irlab olgandim va uni har doim o'zim bilan olib yurardim.

U kuch to'plash chun ozroq to'xtaldi.

— Davom et, — dedi eri sabrsizlik bilan.

— Yo'q, qo'rqaman. Senga aytib berolmayman. Boshqa safar.

— Yo'q, hozir aytasan!

Turmush qurganimizga endi bir oy bo'lgandi. Men erimga juda muloyim muomala qilardim, u meni har doim qo'shnilarga maqtardi. Hamma meni mehribon va sadoqatli ayol sifatida bilardi. Kechqurunlari o'zim unga qahva damlab berardim. Bir kuni kechki payt uning finjoniga bir chimdim o'sha zahri qotildan tashlab yubordim...

Aliks ehtiyotkarlik bilan ignaga navbatdagi ipni o'tkaza boshladi. U umrida sahnaga chiqmagan esa-da, ayni chog'da yer yuzidagi eng mohir aktrisa bilan bellasha olardi. U hozir sovuqqon qotil rolini mahorat ila o'ynayotgan edi. — Hammasi juda silliq kechdi. Men uning karshisida o'tirib kuzata boshladim. U

avval nafas ololmay xirillay boshladi. Men derazani ochdim. Keyin u stuldan tura olmayotganini aytdi. Bir necha soniya o'tgach, u o'lib qoldi...

U jilmayib qo'ydi. Chorakkam to'qqiz bo'lgandi. Endi Dik ulgursa kerak. — Sug'urta polisi bo'yicha qancha pul olding?

— Ikki ming funt atrofida. Birja savdolariga aralashib, bor-budimdan ayrildim. Yana avvalgi ishimga qaytdim. Biroq u yerda yana uzoq qololmadim. Boshqa bir odam bilan tanishib qoldim. Menyana qizlik familiyamga kaytganim uchun u mening turmushga chiqqanimni bilasdi. U nisbatan yosh, kelishgan va ancha badavlat odam edi. Biz Sasseksda nikohdan o'tdik. U mening nomimga o'z hayotini sug'urta qilishga ko'nmadi, biroq bor davlatini menga meros qoldirishini aytdi. U xuddi birinchi erim singari kahvani unga o'z qo'lim bilan damlab berishimni yoqtirardi. — Aliks xayolchanlik bilan kulimsiradi. — Qahvani juda yaxshi damlayman-da. Biz yashaydigan qishloqda mening tanishlarim ko'p edi. Kunlarning birida erim tushlikdan so'ng yuragi xuruji bilan vafot etganini eshitib, ular menga juda ham achinishdi. Hatto avvalgi ishimga qanday kilib qaytganimni ham bilmayman. Ikki erimdan menga to'rt ming funtga yaqin meros koldi. Bu gal birja savdolariga aralashmadim. Sarmoyamni bankka joylashtirdim. Mana, ko'rib turibsanki... U gapini to'xtatishga majbur bo'ldi. Jerald bo'g'riqqanicha barmog'ini unga niqtab pishqira ketdi:

— Qahva! O' parvardigor! Qahva!

Ayol sarosima ichida unga tikildi:

— Uning bunchalik achchiq bo'lganini endi tushundim; Ah, sen iblis! Nimalar qip qo'yding? — U kursining tutqichini mahkam tutgancha, xotiniga tashlanmoqqa chog'landi. — Sen meni zaharladingmi, hali?

Aliks kamin tomonga qarab qochdi. Qo'rquvdan u hamma gapim yolg'on demoqchi ham bo'ldi, biroq tilini tishladi. Bir lahzada eri uning giribonidan olishi mumkin. U butun madorini jamlab eridan ko'z uzmay turaverdi.

— Ha, seni zaharladim. Zahar o'z kuchini ko'rsatyapti. Sen hozir kursidan turolmay qolasan... Qimirlolmay qolasan.

U erini yana bir necha daqika kursida ushlab turolsa edi. Nima bu? Qadam tovushlari! Daricha g'ichirladimi? Demak, ular kelishdi. Mana, darvoza ham ochildi.

— Sen endi joyingdan qimirlay olmaysan, — bor quvvatini to'plab qaytardi Aliks. U shu gaplarni aytganidan keyin xonani tark etdi va es-hushini yo'qotgan holda Dikning qo'lida yiqilib tushdi.

— O‘, tangrim, — qichqirib yubordi Dik va o‘zi bilan kelgan baland bo‘yli polismenga o‘girildi. — Ketdik, qaraylik-chi, ichkarida nima gap ekan. Dik Aliksni ehtiyotkorlik bilan kushetkaga yotqizib uning ustiga engashdi. — Mening kichkintoyim, — dedi erkalab, — mening sho‘rlikkinam. Ceni ne kuyga solishdi?

Aliks zaif tovushda arang uning nomini tilga oldi. Dik polismen uning bilagidan turtganidan keyingina o‘ziga keldi.

— U yerda hech narsa yo‘q, ser, — Faqat kursida allakim o‘tiribdi. U aftidan juda qo‘rqib ketgan ko‘rinadi...

— Keyin-chi?..

— U.. o‘lib yotibdi, ser...

Ularning ikkovi ham Aliksning ovozini eshitib, sergak tortishdi. U yumuq ko‘zlari bilan xuddi alahsirayotgandek g‘o‘ldiradi:

— Uning o‘lganiga ancha bo‘ldi. — U guyoki kimningdir gapini qaytarayotgandek edi.

Rustam Jabborov tarjimai